

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING
KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH (TAYYORLOV GURUHLARI MISOLIDA)**

Panjiyeva Shirin Axmadovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti

Surxondaryo kampusi,

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi,

Tel: +998952599598

shirinpanjiyeva2@gmail.com

“Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Tayyorlov guruhlar misolida)”

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (Tayyorlov guruhlar misolida) uchun yangi metodlarni yaratishni, ularni amaliyotga taqdim etish, texnika texnologiyalarini o'rganadi.

«Совершенствование методики развития творческих способностей детей в дошкольных образовательных организациях (на примере учебных групп)».

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы создания новых методов, их внедрения в практику и технических технологий совершенствования методики развития творчества детей в дошкольных образовательных учреждениях Узбекистана (на примере учебных групп).

“Improving the methodology for developing children's creativity in preschool educational organizations (on the example of training groups)”

Abstract: This article studies the creation of new methods, their introduction into practice, and technical technologies for “Improving the methodology for developing children's creativity in preschool educational institutions (on the example of training groups)” in Uzbekistan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, tayyorlov guruhlar, kreativlik, metodlar, usullar, ta'lim, tarbiya, til, nutq, tafakkur, qiziquvchanlik, erkinlik.

Ключевые слова: Дошкольное образование, подготовительные группы, творчество, методы, приемы, образование, воспитание, язык, речь, мышление, любознательность, свобода.

Keywords: Preschool education, preparatory groups, creativity, methods, techniques, education, upbringing, language, speech, thinking, curiosity, freedom.

KIRISH

Hozirgi davrda jamiyat va fan-texnika taraqqiyoti jadal rivojlanmoqda. Bu o'z o'rnida shu davrga mos kreativlik tushunchasini insonlar ongida shakillantirish va har bir inson kreativ qobiliyatga ega ekanligini va ushbu qobiliyatlarni shakillantirish usullarini keng joriy etish hamda shu asosda bolalarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasini ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan chuqur o'rganish, takomillashtirish va zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish kreativ insonlarni kashf etishni taqozo etmoqda. Ushbu muammo, albatta, ma'lum darajada ta'lim-tarbiya jarayonida o'z yechimini topadi, chunki, bularning barchasi umumiy tarzda inson va jamiyat taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarda namoyon bo'lib, bolaning kreativlik bilimlarini takomillashtirish kabi yirik masalalardan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ tafakkurni rivojlantirishning muammosiga bir necha yillardan buyon metodlar yaratish ustida ko'plab ishlar olib borilmoqda. Emebaylning fikricha, kreativlik muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada noodatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish demakdir. K.Robinson "kreativlik bu o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmuidir"- deb ta'riflaydi [1].

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish birinchi navbatda noan'anaviy o'yinlar asosida ta'im berish, bolaning qiziquvchanligini oshirish, intilish, hayolot dunyosini va fikirlash dunyosini yangi so'zlar bilan boyitish, tasavvur dunyosini zamonaviy ruxda tarbiyalash, hazil – mutoyiba tuyg'usi va erkinlikni shakillantirishga qaratilgan Kreativlik bu- yaratuvchanlikdir! biz bu yaratuvchanlikni faqat amaliy harakatlardagina ko'rishimiz mumkin bo'lib,u o'zida muayyan yangiliklarni aks ettirish ajralib turadi.Bundan kelib chiqib aytish mumkinki albatta kreativlik amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativlikni rivojlantirishda turli usul va metodlar bo'lib, bular orasida:

1. Ilmiy-nazariy tahlil;[2]
2. Kuzatish;[3]
3. So'rovnoma va suhbat;[4]

Robinson, Ken. Out of Our Minds: Learning to be Creative.
John Wiley & Sons, 2011 (ikkinchi nashr).
ISBN: 978-1-118-02681-8

4. Eksperimental-tajriba ishlarini olib borish;[5]
5. Statistik tahlil.[6]

Metodlarining ahamiyati kattadir. Bu metodlarni shakillantirishda, bugungi davr talablari bo'lgan audio, video, matn, grafika va animatsiya effektlari asosida asosida o'quv materiallarini bolalarga o'yin shaklida yetkazib berish lozm. Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning bu usuli, hozirgi kunda ta'lim sohasi yo'nalishlari bo'yicha tatbiq qilinmoqda. Amaliyot tajribalaridan shu narsa ma'lumki, vizual texnologiya asosida ta'lim jarayoni samarali bo'lishi isbotlanga Bolalarda tafakkur va tasavvurni faollashtirish rasmlar, animatsiyalar, rangli diagrammalar yordamida 60–70% gacha oshadi,shu bilan birga ushbu materiallar bolalarda fikrlash, fantaziya qilish va kreativ yondashuvni oshiradi.*bundan kelib chiqib*,bizning an'anaviy ta'lim tizimimizga qaraganda,vizual vositalar yordamida o'tilgan mashg'ulotlar bolaning kreativ javoblar sonini 2-3 barobargacha oshiradi.Xotira va diqqatni jamlash ko'rsatkichini 30–50% ga kuchayadi.Rangli, harakatdagi tasvirlar, interaktiv vizual topshiriqlar bolaning diqqatini jamlash qobiliyatini oshiradi. Bu esa ijodiy faoliyatga kirishishda boshlangich qadam hisoblanadi.Ijodiy yondashuv va mustaqil qaror qabul qilish ko'rsatkichi esa 40% gacha ko'tariladi. Bolalar turli animatsion hikoyalar, rasmlar yoki dizayn vositalarini ko'rganida, rang-baranglikga yangilik qo'shishga harakat qilish,fikirlarini erkin ifoda qilishga harakat qiladi. Bu esa kreativ fikrlashga xizmat qiladi. Mtt da qo'llanilayotgan yangi texnologiyalarning (masalan, interaktiv doska, proyektor, smartpanel) bolalar lug'atida yangi so'zlarning paydo bo'lishi ijtimoiy muloqot va bolalar orasidagi hamkorlikdagi ijodni kuchaytiradi.Bu esa kreativ fikrlashga xizmat qiladi. Mtt da qo'llanilayotgan yangi so'zlarning paydo bo'lishi ijtimoiy muloqot va bolalar orasidagi hamkorlikdagi ijodni kuchaytiradi. Bu ham kreativlikni ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga xizmat qiladi. Matematika, adabiyot, tabiatshunoslik kabi fanlar bilan bog'liq kreativ topshiriqlarda foydalanish natijasida:*O'zbekiston, Rossiya va Janubiy Koreya* tajribalari asosida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, vizual vositalar yordamida o'rgatilgan bolalarning kreativ fikrlash darajasi 20–50% gacha yuqori bo'lgan.

2.Назарова, М. И. "Креативное мышление у детей дошкольного возраста." – М.: Педагогика, 2015

3.Vygotsky, L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard Univ. Press, 1978. 4.Ganieva, S. "Suhbat metodining psixologik asoslari." – Maktabgacha ta'lim jurnali, 2021.

5.Bogdanova, T.N. "Eksperimental tadqiqotlar maktabgacha ta'limda." – Psixologiya va pedagogika, 2019. 6.Mo'minova, D. "Statistik tahlil metodlari maktabgacha ta'limda." – Statistika va ta'lim, 2021.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son “2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni hamda, 2018- yil 3- iyuldagi Maktabgacha ta’lim Vazirligining 3032- son “ O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqidagi “, 2019- yil 16- dekabrda PQ-595-sonli “ Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risidagi “ qonuni, 2019-yil 8- maydagi PQ 4312-sonli “Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”, 2020- yil 6- noyabrda “ O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim- tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PF 6108-sonli farmoni mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiqotning metodologik asosi sifatida xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Barchamizga ma’lumki bola hayotida davomida olishi mumkin bo‘lgan bilimning 70%ini besh yoshgacha bo‘lgan davrda olib ulgurishi o‘z isbotini topgan. Hamamizga ma’lumki bu davr mobaynida bola dunyoni idrok qilishni boshlaydi, fikrlaydi, atrof- olam bilan tanishadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin tayyorlaydi unda paydo bo‘layotgan odatiy qobiliyatlarni kreativ yo‘nalishga undaydi. Darhaqiqat **Muhammad Ali** qalamiga mansub, o‘zbek adabiyotida muhim asarlardan biri “Uchdan keyin kech” –asarida: Bola tarbiyasi esa jamiyatning har

bir a’zosiga daxldor.[7] Har bir voyaga yetgan kishi bola uchun namuna bo‘lishi lozim deya takidlangan.

Maktabgacha ta’lim muassasalari yosh davri ijodiy faol shaxsni shakllanishining bosh

bo‘g‘ini, chunki aynan mana shu davrda bolalarda psixik jarayonlar intensiv o‘zgarishlar kechadi va shaxsiy fazilatlar rivojlanadi. Maktabgacha ta’lim jarayonida kreativlikni rivojlantirish bolalarning turli faoliyatlari orqali, masalan, til va nutq markazidagi faoliyatda kommunikativ munosabatlarda, sana’t va tabiat markazlarida amaliy o‘yinlar yordamida, qurish-yasash, konstruksiyalash va matematika markazida hisob kitob, yaratuvchanlik faoliyatida, syujetli-rolli o‘yinlar va sahnalashtirish markazida ijodning amaliy ko‘rinishlarida amalga oshadi. Bolalarni kreativligini rivojlantirish metodikasi o‘z navbatida ta’lim-tarbiya jarayonida muammoni yechishga yo‘naltirishi zarur. Natijada bolalarda shaxsiy pozitsiyasini himoya qilish malakasi shakllanadi. Shaxsiy hayotida mustaqil fikrlash kompetensiyasiga ega bo‘ladi.

[7] Muhammad Ali. *Uchdan keyin kech*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988

MUHOKAMA

Bugungi tezkor ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, globallashuv va raqamli texnologilar sharoitida jamiyatga yangicha fikrlovchi, mustaqil qaror qabul qila oladigan, ta'lim va tarbiya jarayonlariga yangicha yondasha oladigan shaxslar zarur bo'lmoqda. Bu extiyojni amalga oshirish uchun esa birinchi navbatda ta'lim tizimining bosh bo'g'ini, maktabgacha ta'lim bosqichida o'z aksini topmoqda. Ushbu masalalarni hal qilishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi bolalarning ijodiy fikrlash qobiliyatini erta aniqlash va kreativligini rivojlantirish metodikasidan foydalangan holda bolalarni rag'batlantirish va sistematik rivojlantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biriga aylangan. Ushbu o'ta jiddiy, jamiyat taraqqiyotini rivojlantirish uchun yangi bilimlarni ishlab chiqishdagi masalalarni hal qilishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi ta'lim, tarbiya jarayonlarini yangi metodikalar yaratishdan boshlash kerakligini ko'rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatni rivojlanayotgan davlatlar qatoridan yuqori o'rinlarni egallash uchun an'anaviy bilimlarni zamonaviy bilimlarga kreativlik asosida o'tish jamiyatimiz rivojlanishi uchun zamin yaratishdir. Shuning uchun, bolalarni kreativlik qonuniyatlari bilan tanishtirish, ularning to'g'ri yangicha fikrlashiga, jamiyatda bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda bo'ladigan muommolarni voqea-hodisalarni ilmiy asosda tushunishga, yechim topa olishga yordam beradigan, bolaning shakllanishidagi yangi metodikalarni ishlab chiqish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativlik bolaning bir yoshdan ikkinchi yoshga o'tishi barobarida shakllanib va rivojlanib boradi. Bu holat uning hatti-xarakatida, fikrlash va amaliy ish jarayonlarida, ijtimoiy munosabatlarida, muloqotida, his-tuyg'ularida, namoyon bo'ladi. Bolalarda kreativlikni rivojlantirishda bolani kuzatish orqali unda kreativlik qay darajada, qaysi holatlarida ko'proq namoyon bo'lishiga etibor qaratish kerak. chunki bolada tez tez sodir bo'layotgan kreativ xarakterlar uning kelajagini barqaror yoki aksincha bo'lishiga olib keladi. Kreativlik qiziquvchanlikda namoyon bo'ladi. Boladagi qiziquvchanlik ko'p savol berish va mustaqil harakatlaridir. Agar bu kattalar tomonidan tug'ri qabul qilinmasa bu holat boladagi bu kreativlikni bir ko'rinishi misolida yo'qotish yoki ortiqcha e'tibor va rag'batlar bilan namunadan chetlashishga olib keladi. Bularning oldini olish uchun albatta kreativlik normalarini yaxshi egallash va birinchi navbatda tarbiyachi va pedagoglarning kreativligini shakllantirish kerak. bolalarning mustaqilligini rag'batlantirishning na'munaviy shakli ularda javobgarlikni kuchaytirish, bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni to'g'ri tashkil etilishi uchun imkoniyat yaratish va bolalarning qiziqishlariga e'tibor qaratish, ijodiy ko'nikma, malakalarni o'zlashtirishlari uchun fundament yaratish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Robinson, K. *Out of Our Minds: Learning to be Creative*. – Wiley, 2011.
2. Vygotsky, L.S. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. – Harvard University Press, 1978.
3. Dewey, J. *Experience and Education*. – Macmillan, 1938.
4. Nazarova, M.I. *Kreativnoe myshlenie u detey doskol'nogo vozrasta*. – M.: Pedagogika, 2015.
5. Zokirova, G. “Kuzatish orqali bolalar faoliyatini tahlil qilish.” – Ilmiy maqola, 2022.
6. Muhammad Ali. *Uchdan keyin kech*. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1988.